

OILAVIY MAISHIY ZO'RAVONLIK

Umarova Gulbahor Maxamad qizi

Farg'ona viloyati IIB Marg'ilon shahar IIB JXX HPB XQMB katta inspektori

Annotatsiya: *Maqolada oiladagi tazyiq va zo'rvonlikning samarali profilaktikasi bo'yicha huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka, viktimologik profilaktikasini samarali tashkil etishga doir fikr va mulohazalar bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *uy zo'rvonligi, Zo'rvonlik, zo'rlik hamda o'z joniga qasd qilish holatlarining oldini olish, oilaviy zo'rvonlik, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun, zo'rvonliklarga qarshi birgalikda kurashamiz, tazyiq va zo'rvonlik.*


KIRISH

Oilaviy zo'rvonlik - o'z ko'lamiga ko'ra global muammo. U turmush darajasi va demokratizatsiya formatidan qat'i nazar, dunyoning barcha mamlakatlarida kuzatiladi. Ayollardan nafratlanuvchi erkaklarni faqat qashshoq yoki badavlat, oliy ma'lumotli yoki ma'lumoti yo'q, yevropalik yo osiyolik deb ajratib bo'lmaydi. Bundaylarning alohida bir millati yo e'tiqodi bo'lmaydi. Afsuski, O'zbekiston ham bundan mustasno emas.

Bizning mamlakatimizda maishiy yoki "uy zo'rvonligi"ga ko'pincha bir oila muammosi sifatida qaralgan. Odamlar bunday muammolarni uydan tashqariga olib chiqmaslikka harakat qilishadi. Aksariyat holatlarda zo'rvonlik qurboni sharmandalik va turli gap-so'zlardan qo'rqib, jim yurishga majbur bo'ladi. Bunday vaziyatda qolgan ayollarning indamasligiga bir necha sabab bo'ladi. Kimlardir moliyaviy yordamsiz qolishdan qo'rqsa, boshqalari farzandlari va o'z hayoti uchun xavfsiraydi. Zo'rvonlik qurboni bo'lgan ayol har tomonlama qiyin holatda qoladi. Ayniqsa, hatto eng yaqin insonlari ham bu muammoni hal qilishdan o'zini olib qochganda. Oxir-oqibat bu doimiy qo'rquv, depressiya, o'z joniga qasd qilish kabilar bilan tugaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 maydagi PQ-5116sonli qarori bilan "Zo'rlik hamda o'z joniga qasd qilish holatlarining oldini olish, ushbu harakatlardan jabrlanganlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qabul qilingan "Yo'l xaritasining 17-bandida 25 noyabr - Xotin-qizlarga nisbatan zo'rvonlikka barham berish Xalqaro kuni munosabati bilan 2021 yil 17 noyabrda Institut xotin - qizlar masalalari bo'yicha Kengash raisi Z.Ismailova boshchiligida "Biz zo'rvonlikka qarshimiz" mavzusida umumiy yig'ilish bo'lib o'tdi. Ushbu yig'ilishda M.Ulug'bek





tumani hokimining xotin-qizlar maslalari bo'yicha maslahatchisi N.Mirbabayeva va institut kengash a'zolari dots.F.Yunusova, Z.Xafizova, D.Xursandova, Yerb fakulteti dekan urinbosari X.Eshova, tutorlar hamda YeRB va GTQ fakultetining talaba qizlari ishtirok etishdi. N.Mirbabayeva so'zga chiqib, "Biz zo'ravonlikka qarshimiz" mavzusida ma'ruza qildi. Ma'ruza juda qiziqarli va mazmunli o'tdi. Talaba qizlarimiz o'zlarining qiziqtirgan savollarini berishdi va ijobiy javoblarini olishdi.

Butun dunyo xalqlari kabi biz ham koronavirus infeksiyasining tarqalishi bilan bog'liq sinovli kunlarni boshimizdan kechirmoqdamiz. Albatta sabrqanoatli xalqmiz ushbu kunlarni matonat bilan yengib chiqishiga barchamiz ishonamiz. Shu kunlarda xalqimizning o'zaro xurmat, mexr-oqibatining naqadar yuksak darajada ekanligini yana bir bor guvohi bo'lmoqdamiz. Karantin sharoitida ayrim oilalarda yuzaga kelgan moddiy yetishmovchilik holatlarini chetlab o'tishda saxovat va ko'mak jamoatchilik jamg'armasi tomonidan oziq-ovqat maxsulotlari va pul mablag'larining tarqatilayotganligi birinchi navbatda oila bekasi bo'lgan ayollarimizni qo'llab-quvvatlashning amaliy ifodasi bo'lmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ammo bugungi kunda jamiyatimizda uchrab turayotgan bir noxush holat borki uni bartaraf etishda barchamiz birlashishimiz lozim. Bu ham bo'lsa xotinqizlarning zo'ravonlik va tazyiqqa uchrashishini oldini olish, aytish lozim bo'lsa bunday xolatlarga umuman yo'l qo'ymaslikdir. Davlatimiz rahbarining shaxsiy tashabbuslari bilan so'ngi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator nspector-huquqiy xujjatlar qabul qilindi. Shulardan eng asosiysi sifatida mamlakatimizda gender tengligini ta'minlash maqsadida 2019 yil 2 sentyabr kuni "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinganligini aytib o'tishimiz mumkin.

Ichki ishlar organlarida xotin-qizlar masalalari bo'yicha nsp nspector lavozimlarining joriy etilganligi esa ojiz jins vakilasi hisoblanmish xotin-qizlarni zo'ravonlik va tazyiqdan himoya qilish maqsadida tashlangan eng dadil qadamlardan biridir.

Ayni kunlarda Xorazm viloyati Ichki ishlar boshqarmasi va uning quyi tizimlarida anashu yo'nalishda 18 nafar xotin-qizlar xizmat olib borishmoqda.

ASOSIY QISM

Ayol ojiza, biroq kuchli, ayol zaifa, ammo irodali! Uning irodasi oldida lozim bo'lsa buyuklar bosh egadi. Azaldan erkaklar himoyasida bo'lgan sharq ayollarining qadr-qimmatini hamisha e'zoz-u, e'tirof etilgan. Biroq so'nggi paytlarda xotin-qizlarni kuchli jins vakillari tomonidan qadrsizlantirish, ularga tazyiq o'tkazish, zo'ravonlik qilish holatlari ham afsuski ko'plab kuzatilmoqda.



Aytish kerakki, shu kunlarda yurtimizda “Zo‘ravonliklarga qarshi birgalikda kurashamiz!” mavzusida aksiya o‘tkazilmoqda. Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik – bu “jins belgisiga asoslangan jismoniy, jinsiy yoki psixologik zararga olib keladigan yoki ayollarga aziyat yetkazadigan, shuningdek, bunday harakatlarning tahdidlari, jamiyat yoki shaxsiy hayotda bo‘lsin, majburlash yoki ayollarga nisbatan zo‘ravonlik – inson huquqlarining eng keng tarqalgan buzilishlaridan biridir. U xotin-qizlarni tenglik, xavfsiz hayotdan mahrum qiladi, inson qadr-qimmatini yerga uradi va asosiy erkinliklarni amalga oshirish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bois, butun dunyoda bu muammoga qarshi kurash olib boriladi.


O‘zbekistonda ham keyingi vaqtlarda xotin-qizlarning huquq-manfaatlarini, gender tenglikni ta‘minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ularga yangi ish o‘rinlarini yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirda ushbu masala davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Shu munosabat bilan og‘ir ijtimoiy ahvolda qolgan, shu jumladan oilaviy muammolar va turmushida turli hil zo‘ravonlikka duch kelgan xotin-qizlarni ruhiy qo‘llab-quvvatlash va ularga motivatsiya berish, zo‘ravonlikka qarshi targ‘ibot ishlarini kuchaytirish maqsadida jamoatchilik e‘tiborini ushbu masalaga jalb etishga qaratilgan tadbirlar tashkil etilmoqda.

XULOSA

Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rganlar bilan ishlarni takomillashtirish maqsadida Prezidentimizning 2021-yil 19-maydagi qaroriga asosan Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi huzurida 29 ta Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish bo‘yicha respublika markazi, shu jumladan, 1 ta Respublika markazi, 14 ta hududiy markazlar va 14 ta namunali tumanlararo markazlar tashkil etildi. Markazlarning asosiy vazifalaridan biri tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan, o‘z joniga suiqasd qilgan yoki o‘z joniga qasd qilishga moyilligi bo‘lgan xotin-qizlarga anonim tarzda shoshilinch tibbiy, psixologik, ijtimoiy, pedagogik, huquqiy va boshqa yordam ko‘rsatishdan iborat.

2021-yilning 10 oyida Zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlariga 7226 nafar fuqarolar murojaat qilgan, ulardan 4518 ta holatda turli zo‘ravonlik sodir etilgan. Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rganlar bilan o‘zaro aloqani amalga oshirish va shoshilinch ruhiy, psixoterapevtik, huquqiy yordam ko‘rsatish, maslahat berish va axborot taqdim etish uchun mo‘ljallangan 24 soat uzluksiz ishlaydigan “ishonch telefoni” ishlatilmoqda.





Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun hamda boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Nishonova N.R. Zo‘ravonlik: xotin-qizlarning oiladagi zo‘ravonlik muammosi .58-bet;
2. Amridinova D.T. Turkiston jadidlarining ma‘naviy merosida oila va xotin-qizlar masalalari 63-bet;
3. Niyozova S.S. Zo‘ravonlik va tazyiqqa uchragan ayollar viktimgining oldini olish masalalari.67-bet;
4. Zakirova A.G., Abdurasulova Q.R. Xotin-qizlarning zo‘ravonlikdan jabrlanishining sabablari va uning oldini olish. 76-bet.

